

**Toshkent shahri hududida yuridik shaxslar (korporativ foydalanuvchilar) uchun AAT “Pulli to‘xtab turish joylari” tizimidagi korporativ kabinet va korporativ hisob orqali umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida joylashgan pulli to‘xtab turish joylaridan foydalanish huquqini beruvchi xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi
OMMAVIY SHARTNOMA (OFERTA)**

1. Umumiy qoidalar

- 1.1.** Ushbu Ommaviy shartnoma (keyingi – o‘rinlarda “Shartnoma”) pulli to‘xtab turish joylariga bo‘lgan huquq egasining (keyingi o‘rinlarda – “Texnik operator”) har qanday yuridik shaxsga (keyingi o‘rinlarda – “Korporativ foydalanuvchi”) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda normativ-huquqiy hujjatlar va pulli to‘xtab turish joylari operatori bilan tuzilgan shartnoma bilan belgilangan Texnik operatorning vakolatlari va funksiyalari doirasida Toshkent shahri hududidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida joylashgan pulli to‘xtab turish joylaridan (keyingi o‘rinlarda – “Pulli to‘xtab turish joylari”) foydalanishga doir rasmiy taklifi hisoblanadi.
- 1.2.** Mazkur Shartnoma Korporativ foydalanuvchiga korporativ kabinet funksionalidan (keyingi o‘rinlarda – “Korporativ kabinet”) foydalanish huquqini taqdim etish tartibini, shuningdek, Korporativ foydalanuvchi xodimlari tomonidan AAT “Pulli to‘xtab turish joylari” tizimida korporativ to‘lov usuli orqali korporativ parkovka balansi (ichki shaxsiy balans) hisobidan pulli to‘xtab turish joylari xizmatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish tartibini tartibga soladi.
- 1.3.** Mazkur Shartnoma faqat korporativ mijozlarga (yuridik shaxslarga) nisbatan qo‘llaniladi. Jismoniy shaxslar uchun Texnik operator tomonidan e‘lon qilingan alohida ommaviy oferta amal qiladi.
- 1.4.** Ushbu Ommaviy shartnomada O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida hamda mazkur Shartnomada belgilangan tartibda Toshkent shahri hududidagi umumiy foydalanishda bo‘lgan avtomobil yo‘llarida joylashgan pulli to‘xtab turish joylaridan foydalanish huquqini berish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish shartnomasini tuzish shartlari bayon etilgan.
- 1.5.** Korporativ foydalanuvchi tomonidan ushbu Ommaviy shartnomada ko‘rsatilgan harakatlarning bajarilishi, ushbu Shartnomada belgilangan shartlar, tartib va hajmga muvofiq mazkur Shartnomani tuzishga bo‘lgan rozilik sifatida qabul qilinadi.
- 1.6.** Quyida keltirilgan Ommaviy shartnoma matni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 370-moddalariga muvofiq, nomuayyan shaxslar doirasiga yo‘naltirilgan rasmiy ommaviy shartnoma tuzish taklifi (oferta) hisoblanadi.
- 1.7.** Mazkur ofertaning yuridik shaxs tomonidan aksepti (qabul qilinishi) deb, ushbu Shartnomaning 5-bo‘limida nazarda tutilgan tartibda keyinchalik faollashtirilishi sharti bilan, quyidagi harakatlardan biri va/yoki ularning majmui amalga oshirilishi tushuniladi:
 - Korporativ mijozning Korporativ kabinetini Tizimda (AAT “Pulli to‘xtab turish joylari”) “Poytaxt Parking” foydalanuvchi interfeysi (veb-versiya va/yoki tegishli funksional mavjud bo‘lganda mobil versiya) orqali ro‘yxatdan o‘tkazish;
 - Texnik operatorning hisob raqamiga pul mablag‘larini o‘tkazish yo‘li bilan birinchi oldindan to‘lovni amalga oshirish.Qabul qilingan paytdan boshlab yuridik shaxs ushbu ofertaning barcha shartlari bilan tanishganligini va ularga roziligini tasdiqlaydi hamda avtoturargohlardan foydalanadigan o‘z xodimlarining xatti-harakatlari uchun javobgar bo‘ladi.

- 1.8. Ushbu Shartnoma matni Toshkent shahar hokimining 2024-yil 16-oktabrdagi №731-14-0-Q/24-sonli qarori hamda 2024-yil 21-oktabrdagi №752-14-0-Q/24-sonli qarori, Toshkent shahri hududida pulli to'xtab turish joylarini tashkil etishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablari, hamda Texnik operator "STREETPARK SYSTEMS" MChJ va pulli to'xtab turish joylari operatori "PROMOBILITY" MChJ o'rtasida tuzilgan AAT "Pulli to'xtab turish joylari" tizimidan foydalanish shartnomasi asosida tayyorlangan.
- 1.9. Pulli to'xtab turish joylari xizmatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-sonli "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ko'rsatiladi.
- 1.10. Ushbu Ommaviy shartnoma saqlash shartnomasi hisoblanmaydi, pulli to'xtab turish joyi transport vositalarini saqlash uchun mo'ljallanmagan. Korporativ foydalanuvchi transport vositasining yo'qolishi, o'g'irlanishi, shikastlanishi yoki uchinchi shaxslar tomonidan boshqa zarar yetkazilishi bilan bog'liq barcha xavflarni o'z zimmasiga oladi. Texnik operator va operator bunday holatlar uchun javobgar emas, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.
- 1.11. Toshkent shahar hokimining 2024-yil 16-oktabrdagi №731-14-0-Q/24-sonli qaroriga muvofiq shaharda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida joylashgan pulli to'xtab turish joylari tizimi tashkil etilgan.
- 1.12. Pulli to'xtab turish joylarini boshqarish Texnik operator sifatida "StreetPark Systems" MChJ tomonidan amalga oshiriladi, unga pulli to'xtab turish tizimini tashkil etilishi maqsadida Toshkent shahrining 86 ta ko'chada joylashgan mulkiy majmualar ijara shartnomasi asosida ajratilgan.
- 1.13. Pulli to'xtab turish joylari faqat jonli navbat asosida taqdim etiladi va oldindan band qilinmaydi.

2. Terminlar va ta'riflar

Texnik operator – pulli asosda to'xtab turish joylarini boshqarish va ma'muriyatchiligini amalga oshiruvchi yuridik shaxs bo'lib, pulli to'xtab turish joylaridan Korporativ foydalanuvchilar bilan hisob-kitoblarni yuritadi, shuningdek, pulli to'xtab turish joylaridan foydalanish qoidalariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Korporativ foydalanuvchi – pulli to'xtab turish joylaridan o'z xodimlarining foydalanishini ta'minlash maqsadida mazkur Shartnomani tuzgan (Ofertani akseptlagan) hamda yagona korporativ hisobdan foydalanuvchi yuridik shaxs hisoblanadi. Korporativ foydalanuvchi xodimlari o'rtasida xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash AAT "Pulli to'xtab turish joylari" doirasida, har bir xodim uchun alohida hisob-kitob raqamlari ochmasdan, Korporativ foydalanuvchi tomonidan individual oylik limitlarni belgilash yo'li bilan amalga oshiriladi. Korporativ foydalanuvchi ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish, limitlarni boshqarish va taqsimlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi, shuningdek uning xodimlari tomonidan Texnik operator tomonidan belgilangan to'xtab turish joylaridan foydalanish qoidalariga va shartlariga rioya etilishi uchun javobgar hisoblanadi.

Korporativ foydalanuvchining xodimlari (Foydalanuvchilar) – Administrator tomonidan Korporativ kabinetga kiritilgan, Korporativ foydalanuvchi bilan mehnat munosabatlarida yoki boshqa fuqarolik-

huquqiy munosabatlarda bo'lgan jismoniy shaxslar bo'lib, ularga Korporativ foydalanuvchi mazkur Shartnomaga muvofiq ravishda pulli avtoturargohlardan foydalanish huquqini ta'minlaydi.

Pulli to'xtab turish joylari – Toshkent shahri hududidagi umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida joylashgan, maxsus belgilangan va jihozlangan, transport vositalarini qisqa muddatga yoki uzoq muddatga pulli asosda tartibli joylashtirish uchun mo'ljallangan joy (joylar) bo'lib, Toshkent shahri hokimining 2024-yil 16-oktabrdagi №731-14-0-Q/24-sonli va 2024-yil 21-oktabrdagi №752-14-0-Q/24-sonli qarorlari hamda o'tkazilgan auksion natijalari asosida, "StreetPark Systems" MChJga foydalanish (ijara) huquqi asosida taqdim etilgan, Toshkent shahrining 86 ta ko'chasida joylashgan mulkiy majmualarida pulli to'xtab turish joylarini tashkil etish uchun ajratilgan joylar.

Pulli to'xtab turish joylari hududiga Toshkent shahrining yo'l-transport tarmog'ida joylashgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalariga muvofiq tarzda tegishli yo'l belgilari va/yoki yo'l chiziqlari bilan belgilangan 86 ta ko'chadagi barcha pulli to'xtab turish joylari kiradi.

To'xtab turish joyi – pulli to'xtab turish joylari hududida bir dona transport vositasini joylashtirish uchun ajratilgan alohida joy.

To'lov terminali/to'lov tizimi – Transport vositasini qo'yish uchun ajratilgan joydan foydalanish xizmatlari uchun to'lovni amalga oshirish imkonini beruvchi Paynet uskunasi va boshqa shunga o'xshash uskunalar'.

Mobil ilova – "Poytaxt Parking" foydalanuvchi interfeysining mobil versiyasi bo'lib, Foydalanuvchilarga pulli to'xtab turish joylari xizmatlaridan foydalanish, shuningdek, mobil ilova funksional imkoniyatlariga qarab ma'lumotlar va xizmatlarni olish uchun mo'ljallangan, smartfon, planshet va boshqa mobil qurilmalarda foydalanish uchun yaratilgan. Ilova elektron hisoblash mashinasi (mobil qurilma) uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot hisoblanadi.

Korporativ administrator (Administrator) – Korporativ foydalanuvchining ijro etuvchi organi yoki Korporativ foydalanuvchi tomonidan vakolat berilgan boshqa shaxs bo'lib, u dastlabki ro'yxatdan o'tishni amalga oshiradi, ofertaga roziligini tasdiqlaydi, Texnik operator bilan o'zaro hamkorlik qiladi, Mijoz to'g'risidagi ma'lumotlarni to'ldiradi, xodimlarni qo'shadi hamda limitlarni belgilaydi.

Korporativ kabinet – "Poytaxt Parking" foydalanuvchi interfeysi orqali kirish mumkin bo'lgan Tizimning funksional moduli bo'lib, Korporativ foydalanuvchi uchun mo'ljallangan va ichki parkovka balansini, limitlarni, xodimlar ro'yxatini hamda kirish huquqlarini boshqarish imkonini beradi.

Korporativ to'xtab turish joyi hisobi (Korporativ foydalanuvchi balansi/ichki shaxsiy balans) – Tizimdagi hisob-kitob ko'rsatkichi bo'lib, u Korporativ foydalanuvchidan Texnik operatorning hisob-kitob raqamiga tushgan pul mablag'larini hisobga olish orqali shakllantiriladi va faqat Korporativ foydalanuvchi xodimlarining parkovka sessiyalari uchun to'lovlarni amalga oshirishga mo'ljallangan. Bank hisob raqami, elektron pul mablag'lari yoki Korporativ foydalanuvchining to'lov hisob raqami hisoblanmaydi.

Korporativ to'lov usuli – "Poytaxt Parking" interfeysi (veb va/yoki mobil versiya) orqali Tizimda pulli to'xtab turish joylari xizmatlarini to'lash imkoniyatini beruvchi funksional imkoniyat bo'lib, u xodimga Administrator tomonidan Korporativ kabinetga qo'shilgandan va tegishli kirish huquqlari berilgandan keyin mavjud bo'ladi; to'lov korporativ parkovka balansidan mablag'lar yechilishi orqali amalga oshiriladi.

Shaxsiy kabinet – Tizimdagi Foydalanuvchining hisob qaydnomasi bo'lib, unga “Poytaxt Parking” (vab va/yoki mobil versiya) orqali kirish mumkin va u pulli to'xtab turish joylari xizmatlaridan hamda ularga bog'liq funksional imkoniyatlardan foydalanishni ta'minlaydi.

Kamaytirilmaydigan qoldiq – (korporativ avtoturargoh balansi bo'yicha minimal qoldiq) korporativ avtoturargoh balansida saqlanishi lozim bo'lgan eng kam summa; ushbu qiymatga yetganda yoki undan pastga tushganda, balans to'ldirilmaguncha korporativ to'lov usuli avtomatik ravishda cheklanishi mumkin.

To'xtab turish joylari sessiyasi – transport vositasining Pulli to'xtab turish joyiga oldindan to'langan to'xtash vaqti doirasida joylashtirilganligi qayd etilgan paytdan boshlab, ushbu transport vositasi mazkur to'xtab turish joyidan chiqib ketguniga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Shaxsga doir ma'lumotlar – to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita aniqlangan yoxud aniqlanishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxsga (shaxsga doir ma'lumotlar sub'ekti) tegishli bo'lgan har qanday axborot (Korporativ foydalanuvchining xodimiga).

Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan davlat raqami belgisi – belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan transport vositasining davlat raqam belgisi.

Tizim – “Pulli to'xtab turish joylari” avtomatlashtirilgan axborot tizimi bo'lib, shahar pulli to'xtab turish joylarini yaratish va faoliyat yuritish uchun mo'ljallangan.

Pulli to'xtab turish joylari hududiy zonasi (zona) – muayyan identifikatsiya raqami berilgan bir nechta pulli to'xtab turish joylari birlashgan kompleks.

Tarif – amaldagi qonunchilikka muvofiq Texnik operator tomonidan transport vositasining pulli to'xtab turish joylari hududidan foydalanish muddati va shartlariga qarab belgilanadigan pulli to'xtab turish joylari xizmatlarining narxi.

Qarz – Korporativ foydalanuvchi tomonidan o'z vaqtida to'lanmagan, haqiqatan ko'rsatilgan pulli avtoturargoh xizmatlari uchun mavjud bo'lgan to'lanmagan summadir.

Pulli avtoturargoh xizmatidan foydalanganlik bo'yicha to'lov qilinmaganligi haqida xabarnoma – AAT “Pulli to'xtab turish joylari” tizimi ma'lumotlariga asoslangan holda Texnik operator tomonidan shakllantiriladigan elektron va/yoki qog'oz shaklidagi xabar bo'lib, u Korporativ foydalanuvchiga Korporativ kabinet, Mobil ilova, elektron hujjat aylanish tizimi, elektron pochta va/yoki Tizim funksionalligi tomonidan ko'zda tutilgan boshqa aloqa kanallari orqali yuborilishi mumkin. Ushbu xabarda pulli avtoturargoh xizmatlari uchun to'lov qilinmaganligi, qarz summasi va uning ixtiyoriy to'lanishi muddati haqida ma'lumotlar keltiriladi. Agar qarz bildirilgan muddatda to'lanmasa, qarz kechikkan deb hisoblanadi va Korporativ foydalanuvchiga nisbatan javobgarlik choralari qo'llash mumkin, jumladan, moliyaviy majburiyatlarni kechiktirish uchun jarima hisoblash hamda ushbu Shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa choralar qo'llaniladi.

TV – Transport vositasi

Imtiyozli toifalar – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, pulli to'xtab turish joylari uchun alohida to'lov bo'yicha maxsus shartlarga ega bo'lgan fuqarolar toifalari.

Aloqa markazi – yuridik shaxslarning pulli to'xtab turish joylari xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq masalalar bo'yicha murojaatlarini qabul qilish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqishni amalga oshiruvchi Texnik operatorning tarkibiy bo'linmasi.

“Poytaxt Parking” – tizimga kirish uchun mo'ljallangan foydalanuvchi interfeysi (dasturiy mahsulot) bo'lib, u vab-ilova va/yoki mobil ilova shaklida (amalga oshirilgan funksionalga qarab) taqdim etiladi.

3.Shartnoma Predmeti

- 3.1.** Texnik operator Korporativ foydalanuvchining xodimlariga transport vositasi uchun Pulli to'xtab turish joyi xizmatini ko'rsatish majburiyatini oladi. Korporativ foydalanuvchi esa transport vositasini Pulli to'xtab turish joyiga kirish va joylashtirish orqali ushbu xizmatni qabul qiladi hamda tegishli avtoturargohda ma'lumot stendida, shuningdek, ushbu joylarga oid ma'lumot taxtasida, Texnik operatorning www.streetpark.uz veb-saytida va pulli to'xtab turish joylari operatorining www.poytaxtparking.uz veb-saytida belgilangan foydalanish qoidalariga rioya qilish majburiyatini oladi. Korporativ foydalanuvchi pulli avtoturargoh xizmatlari qiymatini ushbu Shartnoma va Tariflarda belgilangan tartibda va shartlarda o'z vaqtida to'lashni ta'minlashi lozim. Xizmat Korporativ foydalanuvchi xodimining transport vositasiga nisbatan taqdim etiladi va AAT "Pulli to'xtab turish joylari" tizimi tomonidan xodimning Shaxsiy kabinetida ro'yxatdan o'tkazilgan davlat raqamiga asosan identifikatsiya qilinadi.
- 3.2.** Texnik operator Korporativ foydalanuvchining xodimining transport vositasi uchun Pulli to'xtab turish hududida joylashgan bir dona to'xtab turish joyidan foydalanish huquqini taqdim etadi. Korporativ Foydalanuvchining xodimlari pulli to'xtab turish joyidan foydalanish tartibiga rioya qilishi shart va bir nechta joyni egallamasligi kerak. Agar transport vositasi bir nechta pulli to'xtab turish joyiga qo'yilgan bo'lsa, egallagan maydonning o'lchamidan qat'iy nazar, transport vositasi qisman pulli to'xtab turish joylarining barchasini egallagan hisoblanadi. Bunday huquqbuzarlik Korporativ foydalanuvchining xodimlarining Yo'l harakati qoidalariga muvofiq javobgarlikka tortilishiga, shuningdek, ma'muriy jarima qo'llanilishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatda Pulli to'xtab turish joyidan Korporativ foydalanuvchi xodimlarining transport vositasi egallagan har bir to'xtab turish joyi uchun to'lovni amalga oshirishi shart.
- 3.3.** Ushbu Shartnoma, Pulli to'xtab turish joyi Korporativ foydalanuvchi tomonidan Shartnomaning barcha shartlarini hech qanday istisno va cheklovlarsiz to'liq va so'zsiz qabul qilish orqali tuzilgan hisoblanadi.
- 3.4.** Ushbu Shartnoma bir martalik Foydalanuvchilar hamda obuna asosida pulli to'xtab turish joylaridan foydalanuvchilar uchun pulli to'xtab turish xizmati ko'rsatishning, shuningdek transport vositasining pulli to'xtab turish joyida harakatlanishi va to'xtab turishini nazorat qilishning umumiy tartibi va shartlarini belgilaydi.
- 3.5.** Yuqorida qayd etilgan harakatlarni amalga oshirishdan avval, pulli to'xtab turish joylari Foydalanuvchisi ushbu Shartnoma shartlarini diqqat bilan tanishib chiqishi va agar ularni to'liq yoki qisman qabul qilmasa, ushbu Shartnomani tuzishdan voz kechishi lozim.
- 3.6.** Pulli to'xtab turish joyidan foydalanish uchun to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Texnik operator, jumladan Pulli to'xtab turish joyidan foydalanganlik uchun to'lov amalga oshirmaganlik to'g'risida xabarnoma yuborish orqali, qoidabuzarlikni qayd etish huquqiga ega. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan nazorat tizimi tomonidan amalga oshirilgan video va fotosuratga olish, shuningdek foto va videokuzatuv vositalari orqali qayd etilgan ma'lumotlar yetarli asos bo'lib, qoidabuzarlik faktining isboti sifatida xizmat qiladi.
- 3.7.** Xodimga Korporativ hisobdan to'lov imkoniyatini berish shartlari quyidagilardan iborat:
 - Xodimning "Poytaxt Parking" mobil ilovasida faol akkauntga ega bo'lishi;

- Xodimning Administrator tomonidan Korporativ kabinetga qoʻshilishi (akkaunt identifikatori/telefon raqami/ tizim tomonidan belgilangan boshqa ID orqali);
 - Xodimga korporativ toʻlov usulidan foydalanish huquqining berilishi.
- 3.8.** Xodim Korporativ kabinetga qoʻshilgandan soʻng, mobil ilovada avtoturargoh toʻlovini amalga oshirayotganda toʻlov usuli sifatida “Korporativ hisob” koʻrsatiladi. Ushbu usul tanlanganda, avtoturargoh sessiyasi uchun toʻlov Korporativ foydalanuvchining Korporativ avtoturargoh hisobidan mablagʻ yechish orqali amalga oshiriladi.
- 3.9.** Korporativ foydalanuvchi oʻz xohlashicha qaysi xodimlarga foydalanish huquqi berilishini va limitlar/cheklovlarni (agar Tizim funkcionalligi buni qoʻllab-quvvatlasa) mustaqil belgilaydi. Mijoz korporativ toʻlov usulidan foydalangan xodimlar harakatlari uchun javobgardir.
- 3.10.** Tizim maʼlumotlari (shu jumladan avtoturargoh vaqti/zona, sessiya davomiyligi, mablagʻ yechish, xodim akkaunti, davlat raqami va boshqa maʼlumotlar) tomonlar tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar hajmi va qiymatining yetarli dalili sifatida tan olinadi.

4. Texnik operatorning huquq va majburiyatlari

4.1. Texnik operator quyidagi majburiyatlarga ega:

- 4.1.1. Shartnoma tuzilgan paytdan boshlab Korporativ foydalanuvchiga ushbu Shartnomada va Pulli toʻxtab turish joylaridan Foydalanish qoidalarida belgilangan tartibda Pulli toʻxtab turish joyi xizmatini koʻrsatish.
- 4.1.2. Pulli toʻxtab turish joylarida oʻrnatilgan uskunalarning sozligini nazorat qilish va ularni ishchi holatda saqlash.
- 4.1.3. Pulli toʻxtab turish joylari hududining tozaligini taʼminlash.
- 4.1.4. Korporativ foydalanuvchilarning pulli toʻxtab turish joylari qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qilish.
- 4.1.5. Yoʻl belgilari talablariga muvofiq transport vositalarining harakatlanishi va joylashishini nazorat qilish.
- 4.1.6. Foydalanuvchilarni pulli toʻxtab turish joylarida amal qilinadigan qoidalar haqida maʼlumot bilan taʼminlash.
- 4.1.7. Texnik operator pulli toʻxtab turish joylari hududida joylashtirilgan transport vositalarining xavfsizligini taʼminlamaydi va transport vositasining, unda oʻrnatilgan jihozlarning va qoldirilgan buyumlar uchun javobgar emas.
- 4.1.8. Shaxsga doir maʼlumotlarga ishlov berishda Texnik operator Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga rioya qiladi.
- 4.1.9. Korporativ foydalanuvchiga maʼlumot stendlarida va Texnik operatorning rasmiy veb-saytida koʻrsatilgan aloqa raqamlari orqali pulli toʻxtab turish joylari xizmatlarini koʻrsatish bilan bogʻliq masalalar boʻyicha bepul telefon orqali maslahat olish imkoniyatini taqdim etish.

4.2. Texnik operator quyidagi huquqlarga ega:

- 4.2.1. Ushbu Shartnomani, Pulli toʻxtab turish joylari xizmatlarini koʻrsatish shartlarini, Tariflarini, (Toshkent shahar hokimining tegishli qarorida va/yoki Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda), shuningdek toʻlov usullarini bir tomonlama tartibda oʻzgartirish va

ushbu o'zgarishlarni Texnik operatorning rasmiy veb-saytiga joylashtirishga haqli. Ushbu tarzda e'lon qilingan axborot Pulli to'xtab turish joyining Korporativ foydalanuvchisi tomonidan olingan xabarnoma sifatida qabul qilinadi.

4.2.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda, Texnik operator, identifikatsiyadan o'tmasdan Pulli to'xtab turish hududiga kirgan va ushbu hududda 3 (uch) kalendar kunidan ortiq turgan transport vositalari aniqlangan taqdirda, Korporativ foydalanuvchining transport vositasini to'xtab turish hududidan tashqariga ko'chirish huquqiga ega. Bunda transport vositasini ko'chirish va saqlash bilan bog'liq xarajatlar transport vositasi egasining zimmasiga yuklanadi.

4.2.3. Texnik operator quyidagi toifadagi transport vositalariga pulli to'xtab turish joyi xizmatlarini ko'rsatishni rad etish huquqiga ega:

- uzunligi 6 (olti) metrdan, eni 3 (uch) metrdan va balandligi 2 (ikki) metr 20 (yigirma) santimetrdan ortiq bo'lgan, shuningdek tirkamali transport vositalari (tashkil etilgan bolalar guruhi, nogironlik aravachasida harakatlanuvchi shaxslar va harakatlanish imkoniyati cheklangan fuqarolar tashiladigan avtobuslar, hamda yo'lovchi tashishni amalga oshiruvchi sertifikatlangan tashkilotlarga tegishli bo'lgan, bir vaqtning o'zida joylashtirish uchun bitta avtobusdan oshmaydigan avtobuslar bundan mustasno);
- davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan yoki qalbaki (soxtalashtirilgan) davlat raqam belgilariga ega bo'lgan transport vositalariga;
- avariya holatidagi yoki shatakka olingan holatda bo'lgan transport vositalariga;
- kirish/chiqish yo'llarini, avtomobil yo'llarini to'sib qo'ygan yoki Texnik operatorning ish faoliyatiga boshqa shaklda xalaqit bergan transport vositalariga;
- to'liq yoki qisman reklama tarqatish uchun qayta jihozlangan, ko'chma reklama konstruksiyasi sifatida foydalanilayotgan transport vositalariga;
- o'qib bo'lmaydigan/ifloslangan/o'zgartirilgan davlat ro'yxat belgilariga ega transport vositalariga;
- tirkamali yuk transport vositalariga, tirkamali yengil avtomobillarga.

4.2.4. Texnik operator Korporativ foydalanuvchi vakillari va/yoki xodimlari bilan bo'lgan muloqotni audio yozib olish va ushbu yozuvlarni aloqa markaziga/mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilganda sifatni nazorat qilish va Tomonlar huquqlarini himoya qilish maqsadida besh (5) yil davomida saqlash huquqiga ega.

4.2.5. Texnik operator davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan transport vositalarini Pulli to'xtab turish joyiga kiritishini rad etish huquqiga ega, bundan quyidagilar mustasno:

- ixtisoslashtirilgan Pulli to'xtab turish joyiga ko'chirilgan evakuatsiya qilingan avtomobillar;
- vaqtinchalik ro'yxatga olish belgilariga ega bo'lgan transport vositalari.

4.2.6. Quyidagi hollarda Texnik operator Korporativ foydalanuvchi xodimiga Pulli to'xtab turish joyidan foydalanish huquqini bir tomonlama rad etish, shuningdek ushbu Shartnoma asosida Korporativ foydalanuvchi xodimlariga berilgan ushbu huquqni muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega:

- Korporativ foydalanuvchi va/yoki xodim ushbu Shartnoma shartlarini qo'pol ravishda yoki bir necha bor buzgan hollarda;

- Korporativ foydalanuvchi va/yoki xodim shartnomada nazarda tutilgan to'lovlarni to'liq hajmda amalga oshirmagan taqdirda;
 - Korporativ foydalanuvchi va/yoki xodim to'xtab turish joyida Texnik operator yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga zarar yetkazgan yoki bunday zarar yetkazish xavfini yuzaga keltirgan hollarda.
- 4.2.7. Xavfsizlikni ta'minlash va Pulli to'xtab turish joylari qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish maqsadida Texnik operator Pulli to'xtab turish joyi hududlarida videokuzatuvni amalga oshirish huquqiga ega. Yozuvlar belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirilishi mumkin.
- 4.2.8. Bundan tashqari, transport vositasi harakatsiz holatda va to'lovsiz tarzda joylashtirilgan taqdirda, Texnik operator qoidabuzarlik holatini qayd etish va keyingi choralarni ko'rish uchun tegishli mahalliy davlat organlariga xabarnoma yuborish huquqiga ega. To'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Texnik operator bevosita Korporativ foydalanuvchiga xabarnoma yuboradi va belgilangan tartibda sudga murojaat qilish huquqiga ega.
- 4.2.9. Texnik operator xizmatlardan (shu jumladan, mobil ilovadan) foydalanishni vaqtincha cheklash, shuningdek, profilaktika va/yoki texnik ishlar olib borilayotgan paytda xizmat ko'rsatishni to'xtatib qo'yish huquqiga ega. Bunday cheklovlar haqidagi ma'lumotlar veb-saytda va/yoki mobil ilovada joylashtiriladi.

5. Korporativ foydalanuvchining huquq va majburiyatlari

5.1. Pulli to'xtab turish joyining Korporativ foydalanuvchisi quyidagi majburiyatlarga ega:

- 5.1.1. Aksept amalga oshirilishidan oldin mazkur Shartnoma shartlari hamda Pulli avtoturargoh xizmatlariga amaldagi Tariflar bilan tanishish. Korporativ akkauntni ro'yxatdan o'tkazish ushbu shartlar bilan to'liq tanishilganligi va ularga rozilik bildirilganligini tasdiqlaydi.
- 5.1.2. Xodimlarning Shaxsiy kabinetlari (akkauntlari) to'g'risidagi to'liq va aniq ma'lumotlarni Texnik operatorga taqdim etish, ularga Pulli avtoturargoh xizmatlaridan foydalanish huquqini berish maqsadida, Mobil ilova funksionalligi yoki mazkur Shartnamada belgilangan tartibda.
- 5.1.3. Xizmatlar uchun to'lovlarni 100% oldindan (avans) Texnik operatorning hisob raqamiga o'z vaqtida amalga oshirish va Korporativ foydalanuvchining Korporativ avtoturargoh hisobida musbat balans saqlanishini mustaqil nazorat qilish.
- 5.1.4. Xodimlarning Pulli avtoturargohlardan foydalanish jarayonida yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilishini, transport vositalarini belgilangan chiziqlar bo'yicha joylashtirishini, boshqa transport vositalarining harakatiga to'sqinlik qilmasligini, shu jumladan kirish, chiqish va o'tish yo'llarini bloklamasligini ta'minlash.
- 5.1.5. Xodimlarning Texnik operator talablariga qat'iy rioya qilishini ta'minlash, jumladan Pulli avtoturargohlardan foydalanish qoidalari, yong'inga qarshi xavfsizlik talablariga rioya qilish, tozalik va jamoat tartibini saqlash, avtoturargoh uskunalari va uchinchi shaxslar mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish.
- 5.1.6. Korporativ foydalanuvchi yoki uning xodimlari aybi bilan Texnik operatorning yoki uchinchi shaxslarning Pulli avtoturargoh hududidagi mulkiga yetkazilgan zararlarni, Texnik operator

tomonidan taqdim etilgan hujjatlar asosida belgilangan talab yuborilgan kundan boshlab besh (5) ish kuni ichida qoplash.

- 5.1.7. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga (shu jumladan, 2023-yil 24-maydagi № ZRU-844 qonuniga) rioya qilish maqsadida, Pulli avtoturargoh hududida xodimlarning faqat maxsus ajratilgan joylarda spirtli ichimliklarni iste'mol qilishini va tamaki/nikotin mahsulotlarini (jumladan, kalyan, elektron sigaret va tamakini isitish tizimlari) ishlatmasligini ta'minlash.
- 5.1.8. Texnik operatorning birinchi talabiga binoan, harakatga to'sqinlik qiluvchi holatlarni bartaraf etish, texnik yoki favqulodda ishlarni amalga oshirish maqsadida xodimning transport vositasini boshqa ruxsat etilgan avtoturargoh hududiga darhol ko'chirishni ta'minlash.
- 5.1.9. Korporativ hisobdan foydalanish huquqiga ega xodimlarning Shaxsiy kabinetlari (akkauntlari) ro'yxatini Tizimda darhol yangilab turish. Korporativ foydalanuvchi o'z vaqtida avtorizatsiyadan chiqarilmagan akkauntlar orqali amalga oshirilgan mablag' yechishlar uchun to'liq javobgardir.
- 5.1.10. Dastlabki o'zini ro'yxatdan o'tkazish Administratori tomonidan Korporativ kabinet interfeysi orqali mustaqil tarzda amalga oshiriladi (Tizimda/portalda/yoki boshqa belgilangan kanal orqali).
- 5.1.11. Dastlabki ro'yxatdan o'tish jarayonida Administrator quyidagilarni bajarishi shart:
- mazkur Shartnoma matni bilan tanishish;
 - "Ommaviy ofertaga roziman" belgisini (chek-boks) qo'yish yoki Tizim tomonidan belgilangan boshqa harakatni bajarish orqali Shartnoma shartlariga rozilik bildirish.
- 5.1.12. Korporativ kabinetni faollashtirish va funkcionallikni taqdim etish (shu jumladan Korporativ hisob yaratish) Texnik operatorning korporativ mijozlar bilan ishlash bo'yicha menejeri (keyingi o'rinlarda – Menejer) tomonidan arizani tasdiqlashdan so'ng amalga oshiriladi.
- 5.1.13. Texnik operator Korporativ foydalanuvchidan hujjatlarni/ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega bo'lib, ular identifikatsiya va hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish uchun zarur (jumladan, rekvizitlar, STIR, rahbar/imzo qo'yuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar, vakolatnoma/buyruq va boshqalar). Ma'lumotlarni taqdim etmaslik yoki noto'g'ri taqdim etish Korporativ kabinetni faollashtirish rad etilishiga yoki kirish huquqining to'xtatilishiga asos bo'ladi.
- 5.1.14. Menejer tasdiqlagandan so'ng, Korporativ foydalanuvchi kompaniya ma'lumotlarini to'ldirish, limitlarni sozlash va xodimlarni qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi.

5.2. Maxsus javobgarlik chorasi va shartnomani bekor qilish huquqi:

- 5.2.1. Korporativ foydalanuvchi xodimlari tomonidan mazkur Shartnoma shartlari va Pulli avtoturargoh xizmatlaridan foydalanish qoidalarini buzgan har bir holat uchun Texnik operatorga amaldagi bazaviy hisoblash qiymatining (BHM) 1 (bir) miqdorida jarima to'laydi, jarima miqdori buzilish aniqlangan paytdagi BHMga muvofiq hisoblanadi.
- 5.2.2. Texnik operator jarimalar summasini Korporativ foydalanuvchi tomonidan Korporativ avtoturargoh hisobiga oldindan kiritilgan mablag'lardan bir tomonlama sudsiz ushlab qolish huquqiga ega. Buzilishlarni avtomatlashtirilgan tizim ma'lumotlari jarima tayinlash uchun yetarli asos sifatida tan olinadi.
- 5.2.3. Agar Korporativ foydalanuvchi xodimlari mazkur Shartnoma shartlarini yoki Pulli avtoturargoh xizmatlaridan foydalanish qoidalarini uch (3) yoki undan ortiq marta buzsa, Texnik operator bir tomonlama Shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'lib, Korporativ foydalanuvchini kirish huquqi bekor qilinish sanasidan 10 (o'n) kalendar kun oldin xabardor qiladi.

5.2.4. Korporativ foydalanuvchi tasdiqlaydi va kafolatlaydi, xodimlarga Korporativ kabinet va/yoki korporativ to'lov usulidan foydalanish huquqi berilishidan oldin:

(a) har bir xodimni mazkur Shartnoma shartlari va shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosati (Ilova №1) bilan tanishtirgani;

(b) har bir xodimdan shaxsiy ma'lumotlarini Texnik operator tomonidan Pulli avtoturargoh xizmatlarini ko'rsatish, avtoturargoh sessiyalarini hisobga olish, mablag'larni hisoblash/yechish, elektron hisob-faktura (EHF) shakllantirish va nizolarni hal etish maqsadida, Shartnoma va Ilova №1da belgilangan tartib va hajmda qayta ishlashga rozilik olgani;

(c) ushbu rozilikni tasdiqlovchi hujjatlar/dalillar (shu jumladan elektron shaklda) mavjudligini ta'minlagani va Texnik operatorning yozma so'rovi bo'yicha ulardan oqilona muddat ichida taqdim etishni majburiy deb bilgani.

Uchinchi shaxslar, xodimlar yoki vakolatli organlar tomonidan xodimlarning roziliklari mavjud emasligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilgani bilan bog'liq da'volar yuzaga kelgan taqdirda, Korporativ foydalanuvchi mustaqil javobgarlikka ega bo'lib, Texnik operatorga yetkazilgan zararlarni (agar mavjud bo'lsa) qoplashni o'z zimmasiga oladi.

5.3. Korporativ foydalanuvchi va uning xodimlariga taqiqlanadi:

5.3.1. Pulli avtoturargoh hududida transport vositasini yo'l harakati qoidalari va belgilangan belgilar bo'yicha 20 km/soatdan oshiq tezlikda harakatlantirish.

5.3.2. Avtoturargoh maydonida transport vositasini ta'mirlash, yuvish yoki texnik xizmat ko'rsatish (shu jumladan moy, antifriz va boshqa suyuqliklarni almashtirish yoki to'ldirish, akkumulyator, g'ildiraklarni almashtirish va boshqalar), faqat nosoz transport vositasini favqulodda evakuatsiya qilish hollari, shuningdek, "Poytaxt Parking" ilovasi orqali buyurtma qilingan yo'lda yordam ko'rsatish holatlari bundan mustasno.

5.3.3. Avtoturargoh hududida yonilg'i-moylash materiallari (YMM) oqib turgan yoki boshqa zararli holatlari mavjud transport vositalarini joylashtirish va qoldirish, shu jumladan qonunchilik bilan foydalanish taqiqlangan yoki avtoturargoh hududini ifloslantirishi mumkin bo'lgan transport vositalari.

5.3.4. Avtoturargoh joylarini bevosita maqsadiga muvofiq bo'lmagan tarzda ishlatish, jumladan, lekin bular bilan cheklanmagan holda: mulk saqlash, savdo yoki reklama faoliyati olib borish, yig'ilish yoki miting o'tkazish, shuningdek, qo'shni avtoturargoh joylarini to'sib qo'yish.

5.4. Korporativ foydalanuvchi huquqlari:

5.4.1. Texnik operatoridan xodimlari uchun Pulli avtoturargoh xizmatlarini mazkur Shartnoma shartlari, hajmi va muddatlariga muvofiq olish.

5.4.2. Pulli avtoturargoh xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq masalalar, jumladan "Poytaxt Parking" mobil ilovasining texnik jihatlari va o'zaro hamkorlikning tashkiliy masalalari bo'yicha Texnik operatoridan konsultativ yordam olish.

5.4.3. Texnik operatorga Korporativ foydalanuvchi xodimlari tomonidan sodir etilgan buzilishlar bo'yicha batafsil ma'lumotni rasmiy so'rov orqali taqdim etishni so'rash, bu buzilishlar jarimalar tayinlanishi yoki kirish huquqining cheklanishiga asos bo'lgan holatlar uchun.

6. To'lov tartibi

6.1. Pulli to'xtab turish joylari maydonidan foydalanganlik uchun to'lov Texnik operator tomonidan tasdiqlangan tariflarga muvofiq amalga oshiriladi.

6.1.1. Amaldagi tariflar haqidagi aktual ma'lumotlar quyidagi manbalarda taqdim etiladi:

- www.streetpark.uz, www.poytaxtparking.uz rasmiy veb-sayti va Texnik operatorning "Poytaxt Parking" mobil ilovasi - tariflar, to'lov shartlari, shuningdek, Pulli to'xtab turish joyining ish vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.
- Pulli to'xtab turish joylari hududidagi ma'lumot taxtalari - kirish joylarida va pulli to'xtab turish joylarining asosiy zonalarida joylashtirilgan bo'lib, xizmatlar narxi va pulli to'xtab turish joylaridan foydalanish shartlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.
- To'lov terminallari - to'lovni amalga oshirishdan oldin amaldagi tarif rejalarini ko'rsatib, Korporativ foydalanuvchi va xodimlariga joriy shartlar bilan tanishish imkoniyatini beradi.

6.1.2. Texnik operator tarif siyosatiga, shu jumladan xizmatlar narxiga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Amaldagi va o'zgartirilgan tariflar to'g'risidagi ma'lumotlar Texnik operatorning www.streetpark.uz rasmiy veb-saytida, shuningdek mobil ilovasida, hamda boshqa mavjud axborot kanallarida, shu jumladan www.poytaxtparking.uz veb-saytida joylashtiriladi. Agar tegishli xabarnomada boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, tariflardagi o'zgarishlar yuqorida ko'rsatilgan manbalarda rasmiy e'lon qilinganidan keyin kuchga kiradi.

6.2. Transport vositalarini Pulli to'xtab turish joyi bo'yicha xizmatlar narxi Toshkent shahar hokimining 2024-yil 16-oktyabrdagi 731-14-0-Q/24-son qaroriga muvofiq belgilangan pulli to'xtab turish joyining muayyan tarif zonasiga tegishli ekanligiga qarab belgilanadi.

6.3. Pulli to'xtab turish joyidan foydalanishning 1 (bir) soati uchun to'lov miqdori:

Tarif zonasi	Yig'im miqdori 1 (bir) soat, so'm
1-tarif zonasi	12 000
2-tarif zonasi	10 000
3-tarif zonasi	8 000
4-tarif zonasi	6 000
5-tarif zonasi	5 000

6.4. Muayyan Pulli to'xtab turish joyiga tegishli bo'lgan tarif zonasi to'g'risidagi ma'lumotlar Korporativ foydalanuvchi va xodimlariga mobil ilova, Texnik operatorning rasmiy veb-sayti va maxsus axborot tablosi orqali yetkaziladi.

6.5. Bunda Pulli to'xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun Texnik operator tomonidan belgilangan tariflar tegishli normativ-huquqiy hujjatda belgilangan cheklangan miqdorlardan oshmasligi kerak.

6.6. Mazkur Shartnoma bo'yicha xizmatlar to'lovi Korporativ foydalanuvchi tomonidan Texnik operatorning hisob raqamiga mablag'larni o'tkazish orqali 100% oldindan to'lov sharti bilan amalga oshiriladi. Kiritilgan mablag'lar asosida Texnik operator "Poytaxt Parking" tizimida Korporativ foydalanuvchining Korporativ avtoturargoh hisobini to'ldiradi. Korporativ avtoturargoh hisobini to'ldirish faqat naqd pulsiz tartibda, Texnik operatorning hisob raqamiga o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

- 6.7.** Minimal dastlabki to'lov (Korporativ avtoturargoh hisobining birinchi to'ldirilishi) QQS bilan birga **500 000 (besh yuz ming) so'mni** tashkil etadi, va Korporativ foydalanuvchi tomonidan korporativ akkaunt ro'yxatdan o'tkazilgan kundan yoki Korporativ kabinetdan foydalanishga tayyorligi haqida bildirishnoma olgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida amalga oshirilishi shart, agar Texnik operator boshqa muddatni belgilamagan bo'lsa. Mazkur Shartnoma bo'yicha umumiy summa xodimlar tomonidan amalga oshirilgan avtoturargoh sessiyalari va Tariflar asosida belgilanadi.
- 6.8.** Korporativ to'lov usuli Korporativ avtoturargoh balansida har qanday ijobiy qoldiq mavjud bo'lganda mavjud bo'ladi. Texnik operator joriy avtoturargoh sessiyasini to'lash uchun balansda yetarli mablag' bo'lmagan taqdirda avtoturargoh xizmatlarini ko'rsatishga majbur emas.
- 6.9.** Korporativ foydalanuvchi xodimlari uchun ko'rsatilgan Pulli avtoturargoh xizmatlari qiymati faqat Korporativ avtoturargoh hisobidan yechib olinadi. Xodimlarning Shaxsiy kabinetlari (akkauntlari) faqat hisob-kitob va identifikatsiya maqsadlarida ishlatiladi (shu jumladan avtoturargoh sessiyasi, vaqt, zona va transport vositasi ma'lumotlarini qayd etish uchun) va mustaqil to'lov hisoblari hisoblanmaydi, xodimlar tomonidan alohida to'ldirilmaydi va mustaqil to'lov amalga oshirish uchun ishlatilmaydi. Korporativ foydalanuvchi xodimlarining avtoturargoh sessiyalarini to'lash uchun Korporativ avtoturargoh hisobida yetarli mablag' mavjudligini to'liq nazorat qiladi va javobgardir.
- 6.10.** Xizmatlar qiymati Pulli avtoturargohlardan haqiqiy foydalanish jarayonida Korporativ avtoturargoh hisobidan avtomatik tarzda yechib olinadi. Korporativ foydalanuvchi so'rovda ko'rsatilgan loginlar, xodimlarning F.I.O.lari va summalarning to'g'riligiga, shuningdek, xodimlarning o'z hisob ma'lumotlaridan foydalanishga zarur roziliklarining mavjudligiga to'liq javobgardir.
- 6.11.** Korporativ foydalanuvchining Korporativ avtoturargoh hisobidagi balans doim ijobiy bo'lib qolishi va belgilangan kamaytirilmas qoldiqdan past bo'lmasligi shart, mazkur Shartnomada aniq belgilangan hollardan boshqa. Agar Korporativ avtoturargoh hisobidagi balans nol yoki manfiy qiymatga yetgan yoki kamaytirilmas qoldiqdan pastga tushsa, Texnik operator oldindan ogohlantirmasdan Pulli avtoturargoh xizmatlarini taqdim etishni va korporativ to'lov usulidan foydalanish imkoniyatini avtomatik tarzda to'xtatish huquqiga ega bo'ladi, hisobga yetarli mablag' tushguncha. Texnik operator Korporativ foydalanuvchiga "to'lovni kechiktirish" rejimini taqdim etish huquqiga ega (lekin majbur emas), bunda tizim orqali yoki elektron pochta orqali qarzdorlik limiti ko'rsatilgan holda ogohlantirish yuboradi.
- 6.12.** Texnik operator har oy Korporativ foydalanuvchiga Elektron hisob-faktura (EHF)ni elektron hujjat aylanishi tizimi orqali ko'rsatilgan xizmatlar haqidagi ma'lumotlar asosida taqdim etadi. Korporativ foydalanuvchi Elektron hisob-faktura (EHF)ni 5 (besh) ish kuni ichida ko'rib chiqishi va qabul qilishi (imzolashi) yoki asosli yozma e'tirozlarni yuborishi shart. Agar oldindan to'lov summasi haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidan kam bo'lsa, Korporativ foydalanuvchi hosil bo'lgan farqni EHF taqdim etilgan sanadan boshlab 5 (besh) kalendar kun ichida, u imzolanganligidan qat'i nazar, to'lashi shart. Belgilanadigan muddat ichida asosli e'tirozlar taqdim etilmasa, EHF Korporativ foydalanuvchi tomonidan to'liq qabul qilingan (imzolangan) hisoblanadi. Tomonlar AAT "Pulli to'xtab turish joylari" ma'lumotlarini ko'rsatilgan xizmatlarning hajmi va qiymati to'g'risidagi asosiy axborot manbai sifatida tan oladilar. Korporativ foydalanuvchi tasdiqlovchi hujjatlar / texnik loglar / boshqa dalillar mavjud bo'lgan taqdirda asoslantirilgan

e'tirozlar bildirish huquqiga ega, Texnik operator esa ularni oqilona muddatda ko'rib chiqish majburiyatini oladi.

6.13. Korporativ foydalanuvchi Korporativ kabinetdagi xodimlar (ularning akkauntlari) haqidagi ma'lumotlarning dolzarbligi uchun javobgardir. Xodimlar ro'yxatiga o'zgartirish kiritish (qo'shish, chiqarish, kirish huquqini bloklash) Korporativ foydalanuvchi tomonidan mustaqil tarzda Korporativ kabinet funkSIONalligi orqali amalga oshiriladi va mazkur Shartnomaga qo'shimcha kelishuvni talab qilmaydi.

Har bir kalendar choragi yakunlangach, lekin yakun sanasidan 10 (o'n) ish kuni ichida Tomonlar o'zaro hisob-kitoblarni tasdiqlashni amalga oshiradilar. Korporativ foydalanuvchi Texnik operator tomonidan tayyorlangan Tasdiqlash aktini imzolashi yoki belgilangan muddatda asosli yozma e'tirozlarni yuborishi shart.

Belgilanadigan muddat ichida e'tirozlar bo'lmasa yoki Tasdiqlash akti AAT "Pulli to'xtab turish joylari" avtomatlashtirilgan tizimi ma'lumotlari bilan tasdiqlansa, Tasdiqlash akti Korporativ foydalanuvchi tomonidan kelishilgan va imzolangan hisoblanadi.

6.14. To'lov majburiyatlari Texnik operatorning hisob raqamiga mablag' tushgan va to'lovni identifikatsiyalash uchun zarur rekvizitlar ko'rsatilgan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

6.15. Pulli to'xtab turish joyidan foydalanganlik uchun to'lovdan ozod qilish.

6.15.1. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq Pulli to'xtab turish joylaridan foydalanish uchun to'lov normativ-huquqiy hujjatlar va ushbu Shartnomada belgilangan tartibda tizim ishga tushirilgan paytdan boshlab amalga oshiriladi, transport vositalarini joylashtirish bepul asosda amalga oshiriladigan quyidagi holatlar bundan mustasno:

- yalt-yalt etuvchi (ko'k, qizil yoki ko'k-qizil) chiroq-mayoqchalar, shuningdek avariya va maxsus xizmatlar vazifalarini bajarish uchun foydalaniladigan maxsus tovushli ishoralar bilan jihozlangan transport vositalari;
- old va orqa oynalarida "7.17" yo'l belgisi tasviri tushirilgan I yoki II guruh nogironligi bo'lgan nogironlarning transport vositalari (jumladan, nogironlar uchun mo'ljallangan maxsus transport vositalari);
- Ikkinchi Jahon urushi qatnashchisining transport vositasi;
- davlat ro'yxatidan o'tkazilmaydigan ikki g'ildirakli transport vositalari.

6.15.2. Pulli to'xtab turish joyida ko'rsatilgan joylardan tashqarida foydalanilgan yoki tegishli tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, imtiyoz berilmaydi va to'lov umumiy asoslarda undiriladi.

6.15.3. Texnik operator imtiyoz qo'llanishi shartlariga rioya etilishini tekshirishni amalga oshirishga, qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda esa - imtiyozning amal qilishini bekor qilishga va to'xtab turgan vaqti uchun haq undirishga haqli.

6.16. Imtiyozli toifadagi shaxslar uchun bepul avtoturargohlar.

6.16.1. Toshkent shahar Hokimining 2024-yil 16-oktabrdagi №731-14-0-Q/24-sonli Qaroriga ilova qilingan 13-bandga muvofiq, har bir Pulli to'xtab turish joyida, shu jumladan savdo korxonalari, xizmat ko'rsatish, tibbiyot, sport va madaniy-ko'ngilochar muassasalar yaqinida joylashgan to'xtab turish joylarida, imtiyozli to'xtash ruxsatnomasiga ega bo'lgan shaxslar boshqaruvidagi yoki ularning manfaatlari yo'lida foydalaniladigan transport vositalarini

bepul joylashtirish uchun umumiy to'xtab turish joylari sonining kamida 5 foizi (lekin kamida 1 dona joy) ajratilishi shart.

- 6.16.2.** Ko'rsatilgan Pulli to'xtab turish joylari yo'l harakati qoidalari talablariga muvofiq - yo'l belgilari va/yoki gorizantal chiziq belgilaridan foydalangan holda majburiy ravishda belgilanishi kerak. Ushbu joylardan foydalanishga faqat imtiyozga ega bo'lgan huquqni tasdiqlovchi amaldagi hujjat mavjud bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi. Texnik operator imtiyoz berish shartlariga rioya etilishini tekshirishga, qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda esa – pulli to'xtab turish joyidan foydalanganlik uchun to'lovni umumiy asoslarda undirishga haqli.
- 6.16.3.** Korporativ foydalanuvchi Pulli avtoturargoh xizmatlari uchun to'lovni faqat naqdsiz hisob-kitob usulida amalga oshirish huquqiga ega. Xizmatlar uchun to'lov 100% oldindan to'lov sharti asosida Korporativ foydalanuvchi tomonidan Texnik operatorning hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Kelib tushgan mablag'lar asosida Texnik operator "Poytaxt Parking" ilovasida Korporativ foydalanuvchining Korporativ parking hisobiga tegishli summani hisobga oladi. Korporativ parking hisobiga o'tkazilgan mablag'lar faqat Administrator tomonidan korporativ to'lov usulidan foydalanish huquqi berilgan Korporativ foydalanuvchi xodimlarining parking sessiyalari uchun to'lovni amalga oshirish maqsadida ishlatiladi.
- 6.16.4.** Parkovka uchun to'lovni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi texnik nosozliklar yuzaga kelgan taqdirda, Korporativ foydalanuvchi bu haqda darhol Texnik operatorning qo'llab-quvvatlash xizmatini xabardor qilishi va undan olingan ko'rsatmalarga muvofiq harakat qilishi shart.
- 6.16.5.** Parkovka sessiyasi muddatidan oldin yakunlangan taqdirda, Korporativ foydalanuvchi Texnik operatorning Mobil ilovasi orqali sessiyani muddatidan oldin yakunlash funksiyasidan foydalanish huquqiga ega. Bunda xizmat narxi avtomatik ravishda qayta hisoblab chiqiladi, foydalanilmagan pul mablag'lari esa naqd pulsiz shaklda Korporativ foydalanuvchining Parkovka hisobvarag'iga qaytariladi.
- 6.16.6.** Qayta hisob-kitob quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
- parkovka joyidan foydalanish vaqti bir daqiqagacha aniqlik bilan hisoblanadi;
 - to'liq bir daqiqadan ortiq bo'lgan vaqt eng yaqin to'liq daqiqagacha yuqoriga yaxlitlanadi;
 - foydalanilmagan vaqt uchun qaytarilishi lozim bo'lgan summa 100 (yuz) so'mning to'liq miqdorigacha kamayish tomoniga yaxlitlanadi.
- 6.17.** Avtomatik qayd etish vositalari (jumladan foto va/yoki video kuzatuv tizimlari) bilan jihozlangan Pulli avtoturargoh hududiga Korporativ foydalanuvchining transport vositasi (yoki Korporativ foydalanuvchi Xodimi foydalanayotgan transport vositasi) kirib kelganligi fakti, shuningdek «Poytaxt Parking» ilovasida tegishli avtoturargoh sessiyasining qayd etilishi Tomonlar tomonidan Pulli avtoturargoh xizmati ko'rsatilganligining tegishli va yetarli dalili sifatida e'tirof etiladi hamda mazkur Shartnomada nazarda tutilgan tartib va shartlarga muvofiq ushbu xizmat uchun to'lovni amalga oshirish bo'yicha Korporativ foydalanuvchida pul majburiyatini yuzaga keltiradi.
- 6.18.** «Poytaxt Parking» ilovasi ma'lumotlari, jumladan transport vositasining kirish/chiqish sanasi va vaqti, hududiy zona, avtoturargoh sessiyasining davomiyligi, transport vositasining davlat ro'yxatga olish raqami, to'lov usuli hamda hisoblangan summa haqidagi ma'lumotlar Tomonlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va qiymatini aniqlash uchun to'lov usuli va hisob-kitob asosi sifatida

e'tirof etiladi. Korporativ foydalanuvchi istalgan vaqtda qarzdorlikni to'liq to'lash orqali majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarish huquqiga ega.

6.19. Korporativ foydalanuvchi Korporativ avtoturargoh hisobvarag'ida yetarli miqdorda pul mablag'lari mavjudligi, shuningdek uning Xodimlariga ko'rsatilgan Pulli avtoturargoh xizmatlari uchun o'z vaqtida to'lov amalga oshirilishi uchun javobgar hisoblanadi hamda «Poytaxt Parking» ilovasidagi Korporativ kabinet orqali hisob-kitoblar holatini mustaqil ravishda nazorat qilishi shart.

6.19.1. Pulli avtoturargoh xizmatlari uchun to'lov amalga oshirilmaganligi aniqlangan taqdirda, Texnik operator Korporativ foydalanuvchiga qarzdorlik mavjudligi to'g'risida xabarnoma yuboradi. Ushbu xabarnoma «Poytaxt Parking» ilovasidagi Korporativ kabinet orqali, elektron hujjat aylanishi tizimi (EDO), mobil ilova va/yoki Tizim funksionalida nazarda tutilgan boshqa usullar orqali yuborilishi mumkin.

6.19.2. Korporativ foydalanuvchi aniqlangan qarzdorlikni xabarnoma yuborilgan paytdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat ichida ixtiyoriy ravishda to'lashi mumkin. Ushbu muddatda qarzdorlik qoplangan taqdirda, mazkur Shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo'llashga yo'l qo'yilmaydi, agar ushbu Shartnomada yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa.

6.19.3. Pulli avtoturargoh xizmatlarining qiymati xizmat amalda ko'rsatilgan paytdagi tegishli tarif zonasida amal qilayotgan tariflar hamda «Poytaxt Parking» ilovasi ma'lumotlari asosida belgilanadi.

6.19.4. Tizim ma'lumotlari, jumladan parkovka vaqti, zonasi, avtoturargoh sessiyasining davomiyligi, transport vositasining davlat ro'yxat raqami va hisoblangan summalar haqidagi ma'lumotlar Tomonlar tomonidan xizmatlar ko'rsatilganligi va ularning qiymatini tasdiqlovchi tegishli va yetarli dalil sifatida e'tirof etiladi.

6.19.5. Belgilangan muddatda qarzdorlikni to'lash amalga oshirilmagan taqdirda, bu pul majburiyatini o'z vaqtida bajarilmagan deb hisoblanadi va mazkur Shartnoma hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgarlik choralari, jumladan kechiktirilgan to'lov uchun foiz (jarima) hisoblashni keltirib chiqaradi.

6.20. Korporativ foydalanuvchi kirish/chiqishni nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi, shuningdek, Texnik operatorlar va to'lov tizimlari ma'lumotlari tomonidan qayd etilgan ma'lumotlardan nizo yuzaga kelgan taqdirda dalil sifatida foydalanilishi mumkinligiga rozilik beradi.

7. Tomonlarning javobgarligi

7.1. Texnik operator Korporativ foydalanuvchi va uning Xodimlarining transport vositalari (TV) hamda ularda qoldirilgan buyumlar, qimmatbaho narsalar va hujjatlarning xavfsizligi uchun javobgar emas. Xizmatlar transport vositalarini himoya qilishni o'z ichiga olmaydi.

7.2. Texnik operator transport vositalarini o'g'irlik, talon-toroj, shikastlanish yoki uchinchi shaxslarning boshqa noqonuniy harakatlaridan himoya qilishni kafolatlamaydi.

7.2.1. Texnik operator avtoturargoh hududida uchinchi shaxslar tomonidan yetkazilgan zararlar (to'qnashuvlar, mexanik shikastlanishlar va h.k.), shuningdek, boshqa parkovka foydalanuvchilarining harakatlari oqibatlari uchun javobgar emas.

7.2.2. Texnik operator nazoratidan tashqaridagi sharoitlar (aloqa operatorlari yoki to'lov tizimlaridagi nosozliklar, Korporativ foydalanuvchining internet aloqasining mavjud emasligi va hokazo) sababli «Poytaxt Parking» ilovasi interfeysida yuzaga kelgan vaqtinchalik texnik nosozliklar uchun javobgar emas.

7.2.3. Texnik operator o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, shu jumladan: avtoturargohning to'liq to'lishi, davlat organlarining xatti-harakatlari, elektr uzatish yoki aloqa liniyalaridagi avariya tufayli xizmat ko'rsatish imkoniyati yo'qligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7.3. Korporativ foydalanuvchining javobgarligi:

7.3.1. Korporativ foydalanuvchi o'z Xodimlari yoki Korporativ foydalanuvchining korporativ akkaunti orqali Pulli avtoturargohlarga kirish huquqiga ega bo'lgan uchinchi shaxslarning har qanday harakatlari uchun to'liq moddiy javobgarlikka ega bo'ladi, jumladan avtoturargoh jihozlariga zarar yetkazish va Foydalanish qoidalarini buzish.

7.3.2. Mazkur Shartnomada belgilangan to'lov muddatlari buzilgan taqdirda, Korporativ foydalanuvchi kechikkan qarzdorlik summasining har bir kalendar kuni uchun 0,5% (nol butun o'ndan besh foizi) miqdorida penya to'laydi, lekin umumiy qarzdorlik summasining 50% (ellik foiz) dan oshmasligi shart.

7.3.3. Korporativ foydalanuvchining Xodimlari tomonidan Shartnoma shartlarini yoki Ofertaning shartlarini buzish natijasida Texnik operatorga yetkazilgan barcha zararlar Korporativ foydalanuvchi tomonidan to'liq qoplanadi.

7.4. Tezkor javob choralari:

7.4.1. Parkovka hisobida yetarli oldindan to'lov mavjud bo'lmagan taqdirda, Texnik operator Korporativ foydalanuvchiga oldindan ogohlantirishsiz xizmat ko'rsatishni avtomatik tarzda to'xtatish huquqiga ega.

7.4.2. Agar Xodimning transport vositasi Oferta shartlarini buzgan holda joylashtirilgan bo'lsa (to'lov amalga oshirilmagan, chiziqlar buzilgan va hokazo), Texnik operator quyidagilarni amalga oshirish huquqiga ega:

- buzilish faktini foto yoki video tasvirlash vositalari yordamida qayd etish (Tizim ma'lumotlari shubhasiz dalil sifatida qabul qilinadi);
- mobil ilova, Shaxsiy kabinet yoki EHO tizimi orqali xabarnoma yuborish;
- buzuvchi akkauntga kirishni cheklash yoki transport vositasini vakolatli organlar orqali parkovka hududidan chiqarish (bunda xarajatlar Korporativ foydalanuvchiga yuklatiladi).

7.5. Shartnoma shartlarini buzish sababli bekor qilish:

7.5.1. Texnik operator Korporativ foydalanuvchiga 3 (uch) ish kuni oldin xabar berish sharti bilan Shartnomani bir tomonlama sudsiz bekor qilish (xizmatni to'xtatish) huquqiga ega, quyidagi hollarda:

- Xodimlar tomonidan parkovka foydalanish qoidalarining tizimli buzilishi;
- Hisob-fakturalar bo'yicha to'lovning 10 (o'n) kalendar kundan ortiq kechiktirilishi;
- Oferta amal qilish muddati davomida ikki va undan ortiq qarzdorlik holatlarining mavjudligi.

- 7.6. Hech qaysi Tomon majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi, agar bunday holatlar yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, terrorchilik harakatlari, avariya, zabastovka, davlat organlarining qarorlari yoki Tomonlarning oqilona nazoratidan tashqarida bo'lgan boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan bo'lsa.
- 7.7. Ushbu Shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq nizolar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilishga majburdirlar. Agar kelishuvga erishilmasa, nizolar Toshkent shahridagi Axborot-maslahat markazi huzuridagi Hakamlik sudida ko'rib chiqiladi. Da'volar mazkur Hakamlik sudida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonun, Hakamlik sudi Reglamenti talablariga muvofiq, sud majlisi bayonnomasini yuritmasdan, rus tilida, Hakamlik sudi Raisi tomonidan belgilangan tartibda – yakka tartibda Raisning o'zi yoki u tayinlagan hakamlar hay'ati tomonidan — belgilangan manzilda ko'rib chiqiladi.
- 7.8. Toshkent shahridagi Hakamlik sudi qarori yakuniy bo'lib, Tomonlar uchun majburiy hisoblanadi.
- 7.9. Korporativ foydalanuvchi Korporativ parking hisobidan foydalanish orqali o'z Xodimlari tomonidan amalga oshirilgan harakatlar uchun to'liq javobgarlikka ega, jumladan: kirish huquqini to'g'ri ta'minlash, ishdan bo'shatilgan yoki vakolatga ega bo'lmagan xodimlarni o'z vaqtida ro'yxatdan chiqarish, shuningdek, korporativ to'lov usuli orqali amalga oshirilgan barcha parkovka sessiyalari uchun to'lovni ta'minlash.

8. Hisob yozuvini o'chirish

- 8.1. Korporativ foydalanuvchi istalgan vaqtda mazkur Shartnoma (Oferta) amal qilishini to'xtatishni boshlash huquqiga ega bo'lib, buni Texnik operatorga rasmiy yozma so'rov yuborish yoki texnik imkoniyat mavjud bo'lsa, Shaxsiy kabinet orqali amalga oshirishi mumkin.
- 8.2. Yuridik shaxsning korporativ akkauntini yoki unga bog'langan barcha Xodim akkauntlarini o'chirish Korporativ foydalanuvchining mazkur Shartnomani bajarishdan bir tomonlama voz kechishi sifatida hisoblanadi. Korporativ kirish huquqi deaktivatsiya qilingan paytdan boshlab Shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.
- 8.3. Korporativ foydalanuvchi o'z korporativ limiti doirasida alohida Xodimlarning akkauntlarini mustaqil ravishda o'chirish yoki bloklash huquqiga ega. Bunday holatda Shartnoma qolgan Xodimlar uchun amalda bo'lib qoladi.
- 8.4. Shartnoma bekor qilingandan yoki akkauntlar o'chirib yuborilgandan so'ng, Xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari (F.I.Sh., transport vositasi raqamlari, loginlari) Texnik operator tomonidan belgilangan muddat davomida (5 yildan oshmagan holda) faqat soliqqa oid hisobot, arxiv saqlash va mumkin bo'lgan sud nizolarini hal qilish maqsadlarida saqlanadi, undan so'ng esa yo'q qilinadi yoki anonimlashtiriladi.
- 8.5. Texnik operator haqiqatda ko'rsatilmagan xizmatlar uchun mablag'larni ushlab qolmaydi. Shartnoma bekor qilinganda, yuridik shaxsning Parkovka hisobidagi musbat qoldiq qaytariladi. Qaytarish rasmiy Shartnoma bekor qilingan sana va yakuniy Tekshirish Akti imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida amalga oshiriladi.

- 8.6.** Mablag'larning qaytarilishi faqat naqd pulsiz tarzda, Korporativ foydalanuvchi hisobvarag'iga amalga oshiriladi, bu hisobvaraqlar orqali oldindan to'lov kiritilgan bo'ladi. Qaytarish rasmiy tashkilot blankasi bilan yozilgan xat asosida, bank rekvizitlari ko'rsatilgan holda amalga oshiriladi.
- 8.7.** Tashqi xizmatlar (to'lov tizimlari, EHO operatorlari, bank tuzilmalari) tomonidan to'plangan ma'lumotlar ularning o'z maxfiylik siyosati asosida qayta ishlanadi. Texnik operator ushbu uchinchi shaxslar tomonidan ma'lumotlarni o'chirish tartibi yoki harakatlari uchun javobgar emas.
- 8.8.** Shartnoma bajarilishi davomida olingan va shaxsiy Xodimlar yoki Korporativ foydalanuvchini aniqlash imkonini bermaydigan statistik va tahliliy ma'lumotlar Texnik operator tomonidan cheklanmagan muddat davomida tahliliy maqsadlarda foydalanilishi mumkin.
- 8.9.** Korporativ kabinetdan foydalanishni to'xtatish holatida, korporativ mijozning ishlatilmagan mablag'lari hisob-kitoblar tekshirilgandan so'ng, korporativ mijozning yozma so'rovi asosida qaytariladi. Belgilangan minimal qoldiq faqat korporativ kabinetga kirish to'liq to'xtatilgandan va barcha hisob-kitoblar yakunlangandan keyin qaytariladi.

9. Fors-major

- 9.1.** Tomonlar yengib bo'lmaydigan holatlar (fors-major), jumladan, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, qonuniy taqiqlar yuzaga kelgan taqdirda o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod etiladi.
- 9.2.** Fors-major holatlari yuzaga kelganda, majburiyatlarni bajarish muddati ushbu holatlar davomiyligiga mos ravishda suriladi.

10. Yakuniy qoidalar

- 10.1.** Ushbu Shartnoma Korporativ foydalanuvchi tomonidan Shartnomaning 1.7-bandida nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab kuchga kiradi va bu harakatlar Korporativ foydalanuvchining hech qanday istisnosiz va cheklovlersiz Shartnoma shartlarini so'zsiz qabul qilganligini anglatadi. Shartnoma Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarganlariga qadar amal qiladi.
- 10.2.** Ushbu Shartnomada tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi asosida hal etiladi.
- 10.3.** Ushbu Shartnoma shartlari bir necha marotaba buzilgan taqdirda, Korporativ foydalanuvchi pulli to'xtab turish joyidan foydalanish huquqini cheklanishi mumkin bo'lgan shaxslar ro'yxatiga kiritilishi mumkin. Bunday cheklov to'g'risida ma'lumot Korporativ foydalanuvchiga mobil ilovaning shaxsiy kabineti yoki SMS-xabarnoma orqali oldindan yuboriladi.
- 10.4.** Shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi ma'lumotlar Texnik operatorning rasmiy veb-saytida (axborot-telekommunikatsiya tarmog'ida) tegishli ma'lumot e'lon qilinishi orqali Korporativ foydalanuvchiga yetkaziladi.
- 10.5.** Korporativ foydalanuvchi shuni tasdiqlaydi-ki, U Texnik operatorga Xodimlarning shaxsiy ma'lumotlarini uzatish va Texnik operator tomonidan ushbu ma'lumotlarni Shartnomani bajarish maqsadida keyinchalik qayta ishlash uchun qonuniy asoslarni ta'minlagan, jumladan, qonunchilikda bunday rozilik talab etilgan hollarda shaxsiy ma'lumot sub'ektlaridan rozilik olishni ham o'z ichiga oladi.

- 10.6.** Korporativ foydalanuvchining va uning xodimlarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish, saqlash va himoya qilish tartibi, shu jumladan maqsadlar, shartlar, saqlash muddati hamda uchinchi shaxslarga ma'lumot uzatish shartlari ushbu Shartnomaning 1-sonli Ilovasida belgilangan.
- 10.7.** Ushbu Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 370-moddalariga muvofiq rasmiy ommaviy oferta hisoblanadi va Korporativ foydalanuvchi tomonidan aksept qilingan sanada Texnik operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan tahrirda kuchga kiradi.
- 10.8.** Texnik operator Korporativ foydalanuvchiga oldindan sudga murojaat qilmasdan Shartnomani bajarishni to'xtatish (Korporativ kabinet va korporativ to'lov usuliga kirishni to'xtatish) huquqiga ega bo'lib, buni EDO tizimi va/yoki ro'yxatdan o'tishda ko'rsatilgan elektron pochta orqali xabar berish orqali amalga oshiradi, quyidagi hollarda:
- (a) To'lov yoki qarzdorlikni 10 kalendar kundan ortiq kechiktirish;
 - (b) Har qanday chorak davomida ikki yoki undan ortiq qarzdorlik holatlari;
 - (c) Noto'g'ri ma'lumot taqdim etish yoki identifikatsiya uchun hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortish;
 - (d) Xodimlar tomonidan parkovka qoidalarining og'ir yoki tizimli buzilishi, natijasida zarar yetkazish yoki xavfsizlikka tahdid yaratish;
 - (e) Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzish, zarur roziliklar yoki qayta ishlash asoslarining mavjud emasligi;
 - (f) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va/yoki ushbu Shartnoma bilan bevosita nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- Shartnoma bekor qilinish sanasigacha Texnik operator korporativ to'lov usuliga kirishni vaqtincha to'xtatish huquqiga ega.
- Shartnomani bekor qilish Korporativ foydalanuvchini haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar, qarzdorliklar va tasdiqlangan xarajatlar/zararlarni to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

11. TEXNIK OPERATORNING REKVIZITLARI:

MChJ «STREETPARK SYSTEMS»

Manzil: Yakkasaroy tumani, Yunus Rajabi MFY, Rakatboshi ko'chasi 1-o'tish, 10-A uy

Hisob raqami: 20214000707168990001

Bank: AO «Octobank»

STIR: 311 735 907

MFO: 00980

IFUT: 63990

Telefon: +998 94 700 00 10

***Pulli to'xtab turish joylaridan foydalanish
huquqini beruvchi xizmat ko'rsatish
to'g'risidagi Ommaviy Shartnomaga (oferta) 1-sonli ilova
(Korporativ fodaluvchilar uchun)***

Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Ushbu Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish siyosati (keyingi o'rinlarda — Siyosat) O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi № O'RQ-547-sonli "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda — Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi Qonun) talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, shaxsga doir ma'lumotlarni ishlov berish tartibini va "STREETPARK SYSTEMS" MChJ (keyingi o'rinlarda — Texnik operator) tomonidan shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash choralarini belgilaydi.
- 1.2. Texnik operator shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklari, shu jumladan, shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirni himoya qilish huquqiga rioya etishni o'z faoliyatining eng muhim maqsadlaridan biri deb hisoblaydi.
- 1.3. Ushbu Siyosat quyidagi shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga tatbiq etiladi:
 - a) Korporativ foydalanuvchi vakillari (shu jumladan Korporativ administrator) – Shartnoma tuzish va bajarish doirasida;
 - b) Korporativ foydalanuvchi Xodimlari (Foydalanuvchilar) – korporativ to'lov usuliga kirish, parkovka sessiyalarini qayd etish va hisob-kitoblarni amalga oshirish jarayonida.
- 1.4. Korporativ rejim doirasida shaxsiy ma'lumot sub'ektlari, xususan, Korporativ foydalanuvchining Xodimlari bo'lib, ularning akkauntlari Administrator tomonidan Korporativ kabinetga qo'shilgan.
- 1.5. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: Shartnoma (oferta) bajarilishini ta'minlash, AAT "Pulli to'xtab turish joylari" ishlashini ta'minlash, parkovka sessiyalari bo'yicha hisob-kitoblarni shakllantirish, EHF (elektron hisob-faktura) chiqarish, murojaatlarni qayta ishlash va xavfsizlikni ta'minlash.

2. Terminlar va ta'riflar

- 2.1. **Shaxsga doir ma'lumotlarga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish** – hisoblash texnik vositalaridan foydalangan holda shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish.
- 2.2. **Shaxsga doir ma'lumotlarni bloklash** – shaxsga doir ma'lumotlarni vaqtincha ishlov berishni to'xtatish (ma'lumotlarni aniqlashtirish holatlari bundan mustasno).
- 2.3. **AAT "Pulli to'xtab turish joylari"** – pulli to'xtab turish joylariga Internet tarmog'i orqali kirishni ta'minlovchi grafik va axborot materiallari, dasturiy ta'minot va ma'lumotlar bazalari majmuasi.
- 2.4. **Shaxsga doir ma'lumotlar axborot tizimi** – shaxsga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar bazalari va ularga berishni ta'minlovchi axborot texnologiyalari va texnik vositalar.

- 2.5. **Shaxsga doir ma'lumotlarni egasizlantirish** – shaxsga doir ma'lumotlarni aynan qo'shimcha ma'lumotlarsiz muayyan Korporativ foydalanuvchiga tegishli ekanini aniqlab bo'lmaydigan shaklga keltirish.
- 2.6. **Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish**– shaxsga doir ma'lumotlarni bilan bog'liq har qanday harakat yoki harakatlar: yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilish bo'yicha bir harakatni yoki harakatlar majmuini amalga oshirish.
- 2.7. **Shaxsga doir ma'lumotlar** – “Poytaxt Parking” axborot tizimining aniq yoki aniqlanishi mumkin bo'lgan Korporativ foydalanuvchining xodimlariga bevosita yoki bilvosita tegishli bo'lgan har qanday ma'lumotlar.
- 2.8. **Shaxsga doir ma'lumotlarning tarqatilishiga subyekt tomonidan ruxsat berilgan holati** – “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonunda belgilangan tartibda rozilik berish yo'li bilan shaxsga doir ma'lumotlarni subyekt tomonidan cheklanmagan doiradagi shaxslarga foydalanish huquqi beriladigan shaxsga doir ma'lumotlar.
- 2.9. **Shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish** - shaxsga doir ma'lumotlarni muayyan shaxsga yoki muayyan shaxslar doirasiga (shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlar subyektiga), jumladan Foydalanuvchilar va Korporativ foydalanuvchi vakillariga oshkor etishga qaratilgan harakatlar.
- 2.10. **Shaxsga doir ma'lumotlarni tarqatish** - shaxsga doir ma'lumotlarni cheksiz miqdordagi shaxslarga oshkor qilishga (shaxsga doir ma'lumotlarni uzatish) yoki cheksiz miqdordagi shaxslarni shaxsga doir ma'lumotlar bilan tanishtirishga qaratilgan har qanday harakatlar, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarida joylashtirish yoki shaxsga doir ma'lumotlardan boshqa yo'llarda foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
- 2.11. **Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish** - shaxsga doir ma'lumotlarni xorijiy davlat hududiga, xorijiy davlat organiga, xorijiy yuridik shaxsga uzatish.
- 2.12. **Shaxsga doir ma'lumotlarni yo'q qilish** - shaxsga doir ma'lumotlarning qayta tiklab bo'lmaydigan tarzda butunlay yo'q qilinishiga qaratilgan har qanday harakatlar.

3. Operatorning asosiy huquq va majburiyatlari

- 3.1. Operator quyidagi huquqlarga ega:
 - shaxsga doir ma'lumotlarni subyektidan ishonchli ma'lumotlarni va/yoki shaxsga doir ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlarni talab qilish;
 - Shaxsga doir ma'lumotlar subyekt tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga bergan roziligini bekor qilgan taqdirda, shuningdek shaxsga doir ma'lumotlar to'xtatishni so'rab murojaat qilgan taqdirda, Operator «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lsa, shaxsga doir ma'lumotlar subyektining rozilgisiz shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish davom ettirishga haqli;
 - “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonunda va unga muvofiq qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash uchun zarur va yetarli chora-tadbirlarni, ularning tarkibi va ro'yxatini mustaqil ravishda belgilash;
- 3.2. Operator quyidagi majburiyatlarga ega:

- shaxsga doir ma'lumotlar subyekting talabi asosida uning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga oid ma'lumotlarni taqdim etish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni tashkil etish;
- Shaxsga doir ma'lumotlar subyektlari va ularning qonuniy vakillarining murojaatlari va so'rovlariga "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq javob berish;
- Shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli organning so'roviga binoan bunday so'rov olingan kundan boshlab 10 (o'n) kun ichida ma'lumotlarni taqdim etishi;
- Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish bo'yicha ushbu Siyosatga cheklanmagan kirish imkoniyatini ta'minlash nashr qilish yoki boshqacha tarzda ta'minlash;
- Shaxsga doir ma'lumotlarni ularga ruxsatsiz yoki tasodifiy kirishdan, shaxsga doir ma'lumotlarni yo'q qilishdan, o'zgartirishdan, bloklashdan, nusxalashdan, taqdim etishdan, tarqatishdan, shuningdek shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish maqsadida huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'rish;
- "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan tartibda va hollarda shaxsga doir ma'lumotlarni uzatishni (tarqatishni, taqdim etishni, kirishni) to'xtatish, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni to'xtatish va yo'q qilish;
- "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

4. Shaxsga doir ma'lumotlar subyekting asosiy huquq va majburiyatlari

4.1. Shaxsga doir ma'lumotlar subyekti quyidagi huquqlarga ega:

- o'ziga oid shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga doir ma'lumotlarni olish huquqiga ega, O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan holatlar bundan mustasno. Ushbu ma'lumotlar Texnik operator tomonidan subyektgacha tushunarli shaklda taqdim etilishi lozim va ular boshqa shaxsga doir ma'lumotlar subyektlariga oid axborotni o'z ichiga olmasligi kerak (bunday ma'lumotlarni oshkor qilish uchun qonuniy asoslar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasno). Ushbu ma'lumotlarning tarkibi va ularni olish tartibi "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun bilan belgilanadi;
- agar shaxsga doir ma'lumotlar to'liq bo'lmasa, eskirgan, noto'g'ri, noqonuniy yo'l bilan olingan yoki ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlariga muvofiq bo'lmasa – ularni aniqlashtirish, bloklash yoki yo'q qilishni Texnik operatoridan talab qilishga, shuningdek, o'z huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilikda nazarda tutilgan choralarni ko'rishga;
- shaxsga doir ma'lumotlar mahsulotlar, ishlar va xizmatlarni bozorga ilgari surish maqsadlarida ishlov berish holatida oldindan rozilik berish shartini qo'yishga;
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga bergan roziligini bekor qilishga, shuningdek, ularga ishlov berishni to'xtatishni talab qilishga;
- o'z shaxsga doir ma'lumotlariga nisbatan Texnik operator tomonidan amalga oshirilayotgan noqonuniy harakatlar yoki harakatsizliklar bo'yicha vakolatli davlat organiga yoki sudga shikoyat qilishga;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanishga Ushbu Siyosatda belgilangan huquqlardan foydalanish bo‘yicha shaxsga doir ma‘lumotlar subyekti tomonidan yuborilgan murojaatlarga Texnik operator tomonidan murojaat kelib tushgan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kunidan oshmagan muddatda javob beriladi.
- 4.2. Shaxsga doir ma‘lumotlar subyekti majbur:
- Texnik operatorga o‘ziga oid ishonchli (haqiqiy) shaxsga doir ma‘lumotlarni taqdim etish;
 - o‘z shaxsga doir ma‘lumotlarida o‘zgarishlar (yangilanishlar, tuzatishlar) mavjud bo‘lsa, bu haqda Texnik operatorni xabardor qilish.
- 4.3. O‘ziga oid noto‘g‘ri shaxsga doir ma‘lumotlarni taqdim etgan shaxslar yoki boshqa shaxsga doir ma‘lumotlar subyekting roziligisiz uning ma‘lumotlarini taqdim etgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

5. Shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish prinsiplari

- 5.1. Shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish qonuniy va adolatli asosda amalga oshiriladi.
- 5.2. Shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov faqat oldindan aniq belgilangan va qonuniy maqsadlarga erishish bilan cheklanadi. Belgilangan maqsadlarga mos bo‘lmagan holatlarda shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish yo‘l qo‘yilmaydi.
- 5.3. Ishlov berish maqsadlari bir-biriga mos kelmaydigan shaxsga doir ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan ma‘lumotlar bazalarini birlashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.
- 5.4. Faqat ishlov berish maqsadlariga mos keladigan shaxsiy ma‘lumotlarga ishlov berish mumkin.
- 5.5. Ishlov berilayotgan shaxsga doir ma‘lumotlarning mazmuni va hajmi e‘lon qilingan ishlov berish maqsadlariga mos bo‘lishi lozim. Ishlov berish maqsadlariga nisbatan ortiqcha bo‘lgan shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berishga yo‘l qo‘yilmaydi.
- 5.6. Shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berishda ularning aniqligi, yetarliligi va zarur hollarda ishlov berish maqsadlariga muvofiq ravishda dolzarbligi ta‘minlanadi. Operator noaniq yoki noto‘g‘ri ma‘lumotlarni aniqlashtirish yoki ularni o‘chirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘radi va/yoki ularning ko‘rilishini ta‘minlaydi.
- 5.7. Shaxsga doir ma‘lumotlar, ularning subyektini aniqlash imkonini beradigan shaklda, ishlov berish maqsadlari amalga oshirilgan muddatdan oshmagan holatda saqlanishi kerak. Agar saqlash muddati qonun, shartnoma yoki boshqa asosga ko‘ra belgilanmagan bo‘lsa, ma‘lumotlar mazkur maqsadlarga erishilgach yoki bu maqsadlar yo‘qolgan taqdirda yo‘q qilinadi yoki egasizlantiriladi.

6. Shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berish maqsadlari

Ishlov berish shartlari	Korporativ foydalanuvchini avtorizatsiya qilish, Korporativ foydalanuvchini xabardor qilish, avtomobilning davlat ro‘yxat belgisi bo‘yicha tizimda ro‘yxatdan o‘tkazish orqali to‘xtash seansini bog‘lash, eng yaqin pulli to‘xtab turish joylarini qidirish
-------------------------	--

Shaxsga doir ma'lumotlar	- telefon raqamlar; - Avtomobilning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan raqam belgis; - geolokatsiya.
Huquqiy asosi	O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-sonli "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni.
Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish turlari	Telefon raqami saqlanadi va quyidagilar uchun ishlatiladi: -avtorizatsiya uchun telefon raqamiga SMS orqali bir martalik parol yuborish; -Telefon raqamiga SMS yuborish orqali pulli to'xtab turish seansining boshlanishi va tugashi haqida ma'lumot xabarlarini yuborish. Transport vositasining davlat ro'yxatidan o'tkazish belgisi saqlanadi va pulli to'xtab turish sessiyasini ro'yxatdan o'tkazish uchun ishlatiladi. Geolokatsiya saqlanmaydi yoki uchinchi tomon xizmatlariga uzatilmaydi, lekin yaqin atrofdagi pulli to'xtab turish joylarini qidirish uchun ishlatiladi.

7. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shartlari

- 7.1. Shaxsga doir ma'lumotlarga ularning subyekti roziligi asosida yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha ishlov beriladi.
- 7.2. Texnik operator "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunda to'g'ridan-to'g'ri belgilangan holatlarda, subyektning rozilgisiz ham shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni davom ettirish huquqiga ega.
- 7.3. Shaxsga doir ma'lumotlar uchinchi shaxslarga faqat Shartnomani bajarish maqsadida, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda yoki Korporativ foydalanuvchining roziligi bilan uzatiladi.
- 7.4. Shaxsga doir ma'lumotlarning transchegaraviy uzatilishi faqat shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining huquqlari yetarli darajada himoya qilinadigan xorijiy davlatlar hududiga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.
- 7.5. Texnik operator shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi va ularni himoya qilish uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

8. Shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, uzatish va boshqa shakllarda ishlov berish tartibi

- 8.1. Texnik operator tomonidan ishlov beriladigan shaxsga doir ma'lumotlarning xavfsizligi, amaldagi qonun hujjatlari talablarini to'liq bajarish uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi.
- 8.2. Operator shaxsga doir ma'lumotlarning butligini saqlaydi va ruxsatsiz shaxslarning ma'lumotlarga kirishini istisno etuvchi barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.
- 8.3. Shaxsiy ma'lumotlar faqat Shartnoma bajarilishi, AAT "Pulli to'xtab turish joylari" ishlashini ta'minlash hamda qonunchilik va/v yoki vakolatli organlar talablariga muvofiq zarur bo'lgan hollarda

va miqdorda, maxfiylik va himoya choralari rioya qilgan holda uchinchi shaxslarga uzatilishi mumkin.

- 8.4. Korporativ foydalanuvchi o'z shaxsga doir ma'lumotlarida aniqlashtirish zarur bo'lsa, bu haqda info@streetpark.uz elektron pochta manziliga «Shaxsga doir ma'lumotlarni yangilash» degan izoh bilan xabarnoma yuborish orqali yangilash huquqiga ega.
- 8.5. Shaxsga doir ma'lumotlar Shartnomaning amal qilish muddati davomida va undan so'ng 5 (besh) yilgacha saqlanadi, agar qonun hujjatlarida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa.
Korporativ foydalanuvchi istalgan vaqtda info@streetpark.uz elektron manziliga «Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga berilgan rozilikni bekor qilish» degan sarlavha bilan murojaat yuborish orqali o'z roziligini bekor qilishi mumkin.
- 8.6. Tashqi xizmatlar, jumladan, to'lov tizimlari, aloqa vositalari va boshqa xizmat provayderlari tomonidan to'plangan barcha ma'lumotlar ushbu xizmat ko'rsatuvchilar (Operatorlar) tomonidan ularning Foydalanuvchi bilan kelishuvi va Maxfiylik siyosatiga muvofiq saqlanadi va ishlov beriladi. Operator uchinchi shaxslarning, shu jumladan ushbu bandda ko'rsatilgan xizmat ko'rsatuvchilarning harakatlari uchun javobgar bo'lmaydi.
- 8.7. Tarqatishga ruxsat etilgan shaxsga doir ma'lumotlarni uzatishga (foydalanish imkoniyatini berishdan tashqari), shuningdek ularga ishlov berishga yoki ularga ishlov berish shartlariga (foydalanish imkoniyatini bevosita ta'minlash holatlaridan tashqari) nisbatan shaxsga doir ma'lumotlar subyekti tomonidan belgilangan taqiqlar shaxsga doir ma'lumotlarga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan davlat, jamoat va boshqa ommaviy manfaatlarni ko'zlab ishlov berilgan hollarda amal qilmaydi.
- 8.8. Operator shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishda shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.
- 8.9. Operator shaxsga doir ma'lumotlarni saqlashni shaxsga doir ma'lumotlar subyekti aniqlash imkonini beradigan shaklda, agar shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash muddati qonunda, shaxsga doir ma'lumotlar subyekti taraf, foyda oluvchi yoki kafil bo'lgan shartnomada belgilanmagan bo'lsa, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari talab qiladigan muddatdan ortiq bo'lmagan muddatga amalga oshiradi.
- 8.10. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlariga erishilganligi, shaxsga doir ma'lumotlar subyekti roziligining amal qilish muddati tugaganligi, shaxsga doir ma'lumotlar subyekti rozilikni chaqirib olganligi yoki shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni tugatish to'g'risida talab qo'yganligi, shuningdek shaxsga doir ma'lumotlarga g'ayriqonuniy ishlov berilganligi aniqlanganligi shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni tugatish sharti bo'lishi mumkin.

9. Operator tomonidan olingan shaxsiy ma'lumotlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar ro'yxati

- 9.1. Operator shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ajratib olish, ulardan foydalanish, ularni uzatish (tarqatish, taqdim etish, ulardan foydalanish), egasizlantirish, bloklash, o'chirib tashlash va yo'q qilishni amalga oshiradi.

- 9.2. Operator shaxsga doir ma'lumotlarga avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berishni olingan ma'lumotlarni axborot-telekommunikatsiya tarmoqlari orqali olish va/yoki uzatish yo'li bilan yoki bunday tarmoqlardan foydalanmasdan amalga oshiradi.

10. Shaxsiy ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish

- 10.1. Operator shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish boshlanganiga qadar shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatli davlat organini shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatishni amalga oshirish niyati to'g'risida xabardor qilishi shart (bunday xabarnoma shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshirish niyati to'g'risidagi xabardan alohida yuboriladi).
- 10.2. Operator yuqorida ko'rsatilgan xabarnoma taqdim etilganga qadar shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish rejalashtirilayotgan chet davlatning hokimiyat organlaridan, chet ellik yuridik shaxslardan tegishli ma'lumotlarni olishi shart.
- 10.3. Shaxsga doir ma'lumotlarni transchegaraviy uzatish faqat shaxsga doir ma'lumotlar subyektlari huquqlarining yetarli darajada himoya qilinishini ta'minlovchi chet davlatlar hududiga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

11. Shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi

Operator va shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxslar, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shaxsga doir ma'lumotlarni shaxsga doir ma'lumotlar subyektining rozilgisiz uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi va tarqatmasligi shart.

12. Yakunlovchi qoidalar

- 12.1. Korporativ foydalanuvchi o'zining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish bilan bog'liq bo'lgan har qanday masalalar bo'yicha tushuntirishlarni Operatorga info@streetpark.uz elektron pochta manzili orqali murojaat qilish orqali olishi mumkin.
- 12.2. Bu hujjatda Operator tomonidan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish siyosatidagi har qanday o'zgarishlar aks ettiriladi. Ushbu siyosat uning yangi versiyasi bilan almashtirilganga qadar muddatsiz amal qiladi.